

## **2-mavzu. Ba'zi injenerlik masalalarining matematik modellari.**

Reja:

1. Masalaning qo'yilishi.
2. Masalaning matematik modeli.

# 1. Masalaning qo'yilishi.

- **1-masala.** Quyidagi masalani qaraymiz.  $n$  xil xom ashyo dan  $m$  xil maxsulot ishlab chiqilishi talab etiladi. Bunda xom ashyo zaxiralari  $b_1, b_2, \dots, b_n$  bo'lsin. 1- turdagи birlik maxsulotni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan 1- turdagи xom ashyo miqdorini  $a_{11}$ , 1- turdagи birlik maxsulotni ishlab chiqish uchun zarur 2 –turdagi bo'lgan xom ashyo miqdorini  $a_{21}$  va xokazo  $j$ - turdagи birlik maxsulotni ishlab chiqish uchun zarur bo'lgan i-turdagi xom ashyo miqdorini  $a_{ij}$  bilan belgilaymiz. 1- turdagи birlik maxsulotni sotishdan olinadigan foydani  $c_1$ , 2- turdagи birlik maxsulotni sotishdan olinadigan foydani  $c_2$  va xokazo  $m$ - turdagи birlik maxsulotni sotishdan olinadigan foydani  $c_m$  bilan belgilaymiz. Maxsulot ishlab chiqarishning shunday rejasini tuzish kerakki, bunda xom ashyo sarfi uning zaxirasidan oshib ketmasligi, maxsulot sotishdana olinadigan umumiyl foyda maksimal bo'lishi kerak. Yuqoridaqgi berilgan masalani quyidagi jadval ko'rinishida ifodalaymiz.

Maxsulot	1	2	...	m	Xom ashyo zaxira si
1	$a_{11}$	$a_{12}$		$a_{1m}$	$b_1$
2	$a_{21}$	$a_{22}$	...	$a_{2m}$	$b_2$
...	...	...	...	...	...
n	$a_{n1}$	$a_{n2}$	...	$a_{nm}$	$b_n$
Birlik maxsulotdan olinadigan foyda	$c_1$	$c_2$	...	$c_m$	

$$a_{11} + a_{12} + \cdots + a_{1n}$$

## 2. Masalaning matematik modeli.

- Olinadigan maxsulot miqdori noma'lum bo'lib, ularni mos ravishda  $x_1, x_2, \dots, x_m$  bilan belgilaymiz. 1-turdagi maxsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan 1-turdagi xom ashyo miqdori  $a_{11} \cdot x_1$ , 2-turdagi maxsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan 1-turdagi xom ashyo miqdori  $a_{12} \cdot x_2, \dots, n$ -turdagi maxsulotni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan 1-turdagi xom ashyo miqdori  $a_{1n} \cdot x_n$  ga teng bo'ladi. Barcha maxsulotlarni ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan 1-turdagi xom ashyonin umumiyligi miqdori  $a_{11} + a_{12} + \cdots + a_{1n}$  bo'ladi. Shartga ko'ra xom ashyo sarfi uning zaxirasida oshib ketmasligi kerak.

- Bu shartni quyidagicha ifodalaymiz:  $a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \cdots + a_{1n}x_n \leq b_1$
- Qolgan xom ashyolar uchun ham xuddi shu kabi munosabatlarni xosil qilamiz:

$$a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \cdots + a_{2n}x_n \leq b_2$$

.....

$$a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \cdots + a_{mn}x_n \leq b_m$$

- Birinchi maxsulotni sotishdan olinadigan foyda  $c_1x_1$ , ikkinchi maxsulotni sotishdan olinadigan foyda  $c_2x_2$ , ..., n- maxsulotni sotishdan olinadigan foyda  $c_nx_n$  ga teng bo'ladi. Barcha maxsulotlarni sotishdan olinadigan umumiy foyda  $c_1x_1 + c_2x_2 + \cdots + c_nx_n$  ga teng bo'ladi.

- Masalaning shartiga ko'ra maxsulotdan olinadigan umumiyl foyda maksimal bo'lishi kerak, ya'ni quyidagi shart bajarilishi kerak:  $z = c_1x_1 + c_2x_2 + \dots + c_nx_n \rightarrow \max$
- Olinadigan maxsulot xajmi manfiy bo'lishi mumkin emas, ya'ni  $x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, \dots, x_n \geq 0$ .

Yuqoridagi munosabatlarni birlashtirib, berilgan masalaning quyidagi matematik modelini xosil qilamiz:

$$z = c_1x_1 + c_2x_2 + \dots + c_nx_n \rightarrow \max$$

$$a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n}x_n \leq b_1$$

$$a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n}x_n \leq b_2$$

.....

$$a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \dots + a_{mn}x_n \leq b_m$$

$$x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, \dots, x_n \geq 0$$

- **2-masala.**  $n$  ta yuklarni jo'natish punktlari,  $m$  ta yuklarni qabul qilish punktlari berilgan bo'lsin. 1- jo'natish punktidan 1-qabul punktiga jo'natiladigan bir birlik yuk tashish xarajatlarini bilan, . 1- jo'natish punktidan 2-qabul punktiga jo'natiladigan bir birlik yuk tashish xarajatlarini bilan va xokazo . i- jo'natish punktidan  $j$ -qabul punktiga jo'natiladigan bir birlik yuk tashish xarajatlarini bilan belgilaymiz. Jo'natish punktlaridagi yuk zaxiralarini bilan, qabul punktlaridagi yukka bo'lgan talabni bilan belgilaymiz. Masalaning shunday modelini tuzish kerakki, bunda jo'natish punktlaridagi barcha yuklar olib chiqib ketilishi, qabul punktlarining yukka bo'lgan talabi qondirilishi, yuk zaxiralari yig'indisi yukka bo'lgan umumiy talabga teng bo'lishi hamda yuk tashish xarajatlari minimal bo'lishi kerak.

- Masalani jadval ko'inishida ifodalaymiz:

Qabul punktlari Jo'natish punktlari	1	2	...	n	Yuk zaxiralari
1	$c_{11}$	$c_{12}$	...	$c_{1n}$	$b_1$
2	$c_{21}$	$c_{22}$	...	$c_{2n}$	$b_2$
...	...	...	...	...	...
m	$c_{m1}$	$c_{m2}$	...	$c_{mn}$	$b_m$
Yukka bo'lgan talab	$a_1$	$a_2$	...	$a_n$	

Masala shartiga ko'ra  $\sum_{i=1}^n a_i = \sum_{j=1}^{mn} b_j$  bo'lishikerak. Jadvalda  $x_{ij}, i = \overline{1, m}, j = \overline{1, n}$

i- jo'natish punktidan j-qabul punktiga jo'natiladigan yuk xajmi bo'lib, ularning qiymati noma'lum va bu qiymatlarni topish kerak. 1-jo'natish punktidan 1-qabul punktiga yuk tashish xarajati  $c_{11} \cdot x_{11}$  ga, 1-jo'natish punktidan 2-qabul punktiga yuk tashish xarajati  $c_{12} \cdot x_{12}$  ga va umuman i- jo'natish punktidan j-qabul punktiga yuk tashish xarajati  $c_{ij} \cdot x_{ij}$  ga teng bo'ladi. Barcha yuklarni tashishning umumiyligi esa quyidagi funksiya orqali ifodalanadi:

$$Z = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m c_{ij} \cdot x_{ij} \rightarrow \min$$

1-jo'natish punktidan tashiladigan yuklarning umumiyligi miqdori shartga ko'ra shu punktdagi yuk zaxirasiga teng bo'lishi kerak:  $x_{11} + x_{12} + \dots + x_{1n} = b_1$ . Xuddi shu kabi munosabatlarni qolgan jo'natish punktlari uchun ham xosil qilamiz:

$$x_{21} + x_{22} + \dots + x_{2n} = b_2$$

.....

$$x_{m1} + x_{m2} + \dots + x_{mn} = b_m$$

1-qabul punktiga tashiladigan yuklarning umumiy umumiy miqdori shartga ko'ra shu punktdagi yukka bo'lgan talabga teng bo'lishi kerak:  $x_{11} + x_{21} + \dots + x_{m1} = a_1$ . Xuddi shu kabi munosabatlarni qolgan qabul punktlari uchun ham xosil qilamiz:

$$x_{12} + x_{22} + \dots + x_{m2} = a_2$$

.....

$$x_{1n} + x_{2n} + \dots + x_{mn} = a_n$$

Tashiladigan yuklarning xajmi manfiy bo'lishi mumkin emas, ya'ni  $x_{ij} \geq 0, i = \overline{1, m}, j = \overline{1, n}$ . Yuqoridagi barcha munosabatlami birlashtirib, berilgan masalaning quyidagi matematik modelini xosil qilamiz:

$$Z = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m c_{ij} \cdot x_{ij} \rightarrow \min$$

$$\left\{ \begin{array}{l} x_{11} + x_{12} + \cdots + x_{1n} = b_1 \\ x_{21} + x_{22} + \cdots + x_{2n} = b_2 \\ \cdots \cdots \cdots \cdots \cdots \cdots \cdots \cdots \\ x_{m1} + x_{m2} + \cdots + x_{mn} = b_m \end{array} \right.$$

$$\left\{ \begin{array}{l} x_{11} + x_{21} + \cdots + x_{m1} = a_1 \\ x_{12} + x_{22} + \cdots + x_{m2} = a_2 \\ \cdots \cdots \cdots \cdots \cdots \cdots \cdots \cdots \\ x_{1n} + x_{2n} + \cdots + x_{mn} = a_n \end{array} \right.$$

$$x_{ij} \geq 0, i = \overline{1, m}, j = \overline{1, n}$$